



## THE ESSENCE OF CORRUPTION AND THE EVOLUTION OF COMBATING IT

**Azizov Husnuddin Geldiyorovich**

Doctor of Philosophy (PhD) in Law

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18976311>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 11<sup>th</sup> March 2026

Online: 12<sup>th</sup> March 2026

### KEYWORDS

*Corruption, combating,  
evolution.*

### ABSTRACT

*This article reflects on the essence of corruption and the evolution of combating it, and offers proposals and recommendations for the more effective organization of this activity.*

## KORRUPSIYANING MOHIYATI VA UNGA QARSHI KURASHISH EVOLYUTSIYASI

**Azizov Husnuddin Geldiyorovich**

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18976311>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 11<sup>th</sup> March 2026

Online: 12<sup>th</sup> March 2026

### KEYWORDS

*Korrupsiya, qarshi  
kurashish, evolyutsiya.*

### ABSTRACT

*Maqolada korrupsiyaning mohiyati va unga qarshi kurashish evolyutsiyasi xususida fikr yuritilib, mazkur faoliyatni yanada samarali tashkil etishga oid taklif hamda tavsiyalar bildirilgan.*

Ta'kidlash lozimki, korrupsiya murakkab ijtimoiy salbiy hodisa bo'lib, u bo'yicha tadqiqotlar jumladan sotsiologiya, kriminologiya, jinoyat huquqi, ma'muriy huquq, tazkor-qidiruv huquqi kabi bir qancha fanlar doirasida ham amalga oshirilmoqda. Xususan, "korrupsiya" atamasining yetimologiyasi xususida turli fikrlar mavjud. Jumladan, keng ommalashgan birinchi fikrga ko'ra, "korrupsiya atamasi lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "pora

evaziga og'dirish"<sup>1</sup> degan ma'noni anglatadi.

Shuningdek, mazkur atama ayrim adabiyotlarda lotincha "corruptere" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "buzilish, aynish, tanazzul"<sup>2</sup>, boshqa adabiyotlarda lotincha "corruptum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "singan, buzilgan" kabi ma'nolarni bildirishi va shaxsiy hayot hamda korporativ foyda yo'lida jamoat manfaatlariga putur yetkazishni anglatishi qayd etilgan.

<sup>1</sup> Криминология. Учебник. Отв. редактор: М.Х.Рустамбаев. – Ташкент: ТГУИ, 2008. – С. 219.

<sup>2</sup> <http://ru.wikipedia.org/wiki/Коррупция>.



O'zbek tilining izohli lug'atida esa, "korrupsiya (*lot. corruptio – buzish, yo'ldan ozdirish, sotib olish*) – mansabdor shaxslarning o'zlariga ishonib topshirilgan huquqlari va hokimiyat vakolatlaridan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishi"<sup>3</sup>, deb izoh berilgan.

Darhaqiqat, "har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o'tish, afsuski, korrupsiya kabi jirkanch hodisa bilan birga yuz bergan. Qanchalik qayg'uli tuyulmasin, jinoyatchilik hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda bo'lgan"<sup>4</sup>. Davlat va huquq bilan deyarli bir paytda paydo bo'lgan "korrupsiya" deb ataluvchi g'ayriijtimoiy hodisaning ijtimoiy tabiati shunda namoyon bo'ladiki, ijtimoiy boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi shaxslar jamiyatning rivojlanish jarayonida asta-sekin shaxslarning alohida bir majmuini shakllantiradilar<sup>5</sup>.

Ular o'z ijtimoiy mavqeining o'ziga xosligi tufayli boshqalardan ajralib turadigan kishilarning alohida guruhini hosil qiladilar. Bu guruh vakillarining o'ziga xosligi ularga ommaviy xususiyatga ega bo'lgan hokimiyat vakolatlari berilgani bilan belgilanadi. Buning natijasida ularda mazmun va mo'ljallariga ko'ra jamiyatning boshqa a'zolari manfaatlaridan butunlay farq qiladigan alohida manfaatlar vujudga keladi.

Mazkur holat mavjud siyosiy institutlar va davlatning hokimiyat

tuzilmalari u yoki bu darajada beqarorlashuviga olib keladi, muayyan toifadagi mansabdor shaxslarda guruh manfaati yoki shaxsiy manfaatga erishish yo'lida birdamlikni paydo qiladi<sup>6</sup>.

Qadimgi Rim huquqida korrupsiya umumiy mazmunda buzmoq, vayron qilmoq, soxtalashtirmoq, sotilmoq ma'nolarini bildirib, huquqqa xilof qilmish mazmunida tushunilgan. Keyinchalik, bu so'z jamiyatni boshqarish ishlaridagi normal jarayonni buzish ma'nosini aks ettira boshlagan. Bu tushuncha vaqt o'tgan sari yuridik fanda yanada aniqlashtirilib xizmat faoliyatidagi sotilish tushunchasini anglata boshladi. Bugungi kunda ham korrupsiya so'zi o'zining kelib chiqishi jarayoni bildirgan mazmuniga muvofiq ravishda jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmish sifatida qaraladi.

N.Makiavelli fikricha, korrupsiya – bu jamoat imkoniyatlaridan shaxsiy manfaatlarda foydalanish. U o'zining "Hukmdor" asarida podshohlarning maslahatchilari, ya'ni amaldorlarni tavsiflab, shunday yozgan edi: "Yordamchining qiymatini bilishning bitta aniq usuli bor. Agar u podshohdan ko'ra o'zini ko'proq o'ylasa va har holda o'z manfaatini ko'zlasa, u hech qachon podshohning yaxshi xizmatkori bo'la olmaydi va unga tayanib ham bo'lmaydi"<sup>7</sup>.

U yoki bu shakldagi korrupsiya masalasiga G.G. Grosiy, T. Gobbs,

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.II. Ye-M. / Tahrir hay'ati: T.Mirzaev va boshq. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B.409.

<sup>4</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B.83.

<sup>5</sup> Криминология. Учебник. / Отв. редактор: М.Х.Рустамбаев. – Ташкент: ТГЮИ, 2008. –С.222.

<sup>6</sup> Мовский И.Б. Коррупция: проблемы уголовной ответственности государственных и муниципальных служащих. – М., 2004. – С.5.

<sup>7</sup> O'sha asar. 35-b.



J.J. Russo va boshqa mashhur jamoat arboblari, faylasuf va mutafakkirlarning asarlarida ham to'xtalib o'tilgan.

Xalqaro hujjatlarda birinchi bor korrupsiya tushunchasi BMT Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksi"da "...mansabdor shaxsning har qanday shakldagi mukofot evaziga o'z mansab vakolatlari doirasida mazkur mukofotni beruvchi shaxs manfaatlarini ko'zlab, lavozim yo'riqnomasi qoidalarini buzgan holda yoki buzmasdan muayyan harakatlarni bajarishi yoki harakatsizligi"<sup>8</sup> deb ta'rif berilgan.

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin keng qamrovli quyidagicha ta'rif berilgan: "Korrupsiya – bu shaxsiy naf ko'rish maqsadida davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir"<sup>9</sup>.

Korrupsiya tushunchasiga berilgan shunga o'xshash ta'rifga Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag'ishlangan hisobotida ham duch kelish mumkin<sup>10</sup>.

Odatda, "korrupsiya" atamasi "mansabdor shaxs", "hokimiyat vakolatlari", "g'araz maqsadlarda" va "noqonuniy suiiste'mol qilish" kabi iboralar bilan birga ishlatiladi. Hozirgi paytda korrupsiya, uning ijtimoiy xavfliligi, u keltiradigan zararlar haqida ko'plab ilmiy fikrlar, yondoshuvlar mavjud. Ularni tizimli asosda tahlil qilish

korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini samarali tashkil qilish va shu asosda jamiyat va shaxs manfaatlarini noqonuniy suiiste'molliklar, ijtimoiy adolatsizlik va illatlardan himoya qilishda muhim qadamlardan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvar kuni qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida "korrupsiya" tushunchasiga — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish<sup>11</sup> deb ta'rif berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Qayd etib o'tilgan fikrlarga qo'shilgan holda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, korrupsiya, avvalo, ijtimoiy hodisadir. U jamiyat hayotida boshqaruv, xususan, davlat boshqaruvi bilan bog'liq ravishda vujudga keladi va mavjud bo'ladi.

Keng ma'noda korrupsiya deganda, mansabdor shaxsning mansab vakolatlari bilan bog'liq huquqlaridan to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy bo'lik orttirish maqsadida foydalanishi, siyosiy arboblari, mansabdor shaxslarning sotilishi, sotib olinishi tushuniladi.

Tor ma'noda korrupsiya mansabdor shaxsning huquqqa zid qaror

<sup>8</sup> Кодекс поведения должностных лиц по поддержанию правопорядка (Принят резолюцией Генеральной Ассамблеи от 17 декабря 1979 г.) // [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/code\\_of\\_conduct.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/code_of_conduct.shtml).

<sup>9</sup> United Nations Convention Against Corruption, United Nations, New York, p. 14 // Elektron manba: <https://www.unodc.org/unodc/en/treaties/SAS/>.

<sup>10</sup> Отчет Всемирного банка о мировом развитии / Под общ. ред. Д.Тушунова. Пер. с англ. Н. Сухова. – М.: Прайм-Тасс, 1997. – С. 26.

<sup>11</sup> <https://lex.uz/docs/3088008>.



qabul qilishi oqibatida qaysidir tomon manfaatdor bo'ladi, mansabdor shaxs esa, evaziga qandaydir mukofot oladi.

Ushbu vaziyatning tavsifiy belgilari: qonun yoki yozilmagan ijtimoiy normaga zid ravishda qaror qabul qilinadi; sheriklar o'zaro kelishib harakat qilishadi; ikkala tomon ham g'ayriqonuniy foyda (afzallik) oladi, bitim ishtirokchilari o'zlarining harakatlarini yashirishga harakat qilishadi. Oddiy holat, biror shaxsga nisbatan qandaydir qaror qabul qilishi lozim bo'lgan mansabdor shaxs (*masalan, biror faoliyat turiga lisenziya berishda*) mijozni pora berishga majbur bo'lishi uchun sun'iy to'siqlar barpo etadi. Bu holat pora olish va pora berish bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaning an'anaviy tushunchasiga mos keladi.

Korrupsiyaning paydo bo'lishi davlat va huquqning paydo bo'lishi bilan, boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatda boshqaruv funksiyasi paydo bo'lgan paytdan boshlab mavjuddir. Insoniyat tarixida davlatchilik boshqaruv shakli paydo bo'lgan davrdan boshlab mansabdor shaxs boshqa fuqarolarning yer, moddiy va boshqa resurslarini tasarruf etish imkoniga ega bo'lgan. Ko'p asrlar davomida ko'plab davlatlarda bir qator lavozimlarga haq to'lanmagan. Amaldorlar bajargan ishlaridan kelib chiqib "haq" olganlar. Ko'pincha bunday xizmatlar uchun to'lanadigan "haq"ni norasmiy miqdori ham belgilab qo'yilgan.

Murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida korrupsiya tarixi qadimiyligiga ko'ra insoniyat sivilizatsiyasiga teng

desak xato bo'lmaydi. Korrupsiyaga qarshi kurashchi sifatida tarixiy xotiralar saqlanib qolgan birinchi hukmdor shumer shahar-davlati Lagasha podshohi Uruinimgina bo'lgan (tahminan er. av. 2319-2311-yillarda boshqargan)<sup>12</sup>. Korrupsiya uchun namoyishkorona va juda qattiq jazo choralari qaramasdan, unga qarshi kurashish kutilgan natijani bermagan.

Korrupsiyaning muhokamasiga bag'ishlangan qadimgi hind davlat boshqaruv san'ati haqidagi birinchi ilmiy asar "Artxashastra" deb nomlanib, Bxarat (Xindiston) vazirlaridan biri Kautilya taxallusi ostida nashrdan chiqarilgan (er. av. IV asr) asar. Bu asarda podshoh oldida turgan muhim vazifalardan biri bu xazina o'g'irligiga qarshi kurashish ekanligi ta'kidlab o'tilgan<sup>13</sup>.

Shunday muammo bilan qadimgi Misr firavnlari ham to'qnash kelishgan. Chunki qadimgi Misrda ozod dehqonlar, xunarmandlar va hatto harbiylarga nisbatan o'zboshimchalik va qonunga xilof harakatlarni sodir etishni o'zlariga ep ko'ruvchi amaldorlarning ulkan byurokratik apparati vujudga kelgan edi.

Bobil hukmdori Xammurapi qonunlarida ham sudyalarning poraxo'rliigi uchun javobgarlik masalalari o'rin egallagan. Jumladan, agar qozi ishni ko'rib chiqib, hukm chiqarib, muhri bilan hujjat tayyorlasa, keyin esa hukmini o'zgartirsa, o'z qarorini va ishdagi da'vo miqdorini o'zgartirganlikda ayblanishi hamda da'vo summasining 12 baravari miqdorida jarima bilan jazolanishi, bundan tashqari, qozilar kengashidan haydalanishi va bu lavozimga boshqa qaytmasligi lozimligi belgilab qo'yilgan.

<sup>12</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Уруккина>.

<sup>13</sup> Артхашастра, или Наука политики. М., 1993. С. 75.



Korrupsiya insoniyat tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida u bilan birga yashab kelmoqda. Misol uchun Xammurabi qonunlarida poraxoʻrlik uchun jazo nazarda tutilgan<sup>14</sup>. Miloddan avvalgi VI asrda Xios greklar orolida mansabdor shaxslarning sovgʻalar olishi ularning sotilishi hisoblangan va qonun bilan taʼqib qilingan<sup>15</sup>.

Miloddan avvalgi II asr va milodiy II asrlarda braxmanlik (ruhoniylar) maktablaridan biri tomonidan Qadimgi Hindistonda tuzilgan Manu qonunlari sud amaldorlarini “sud ishlarini yuritish qoidalariga amal qilishga” chaqiradi va “...adolatsiz qaror qabul qilish bilan oʻzingizni osmonga erishishning abadiy baxtidan mahrum qilishingiz mumkin”ligini esda tutishga chaqiradi<sup>16</sup>. Ammo bu qonun asosan diniy va axloqiy koʻrsatmalarni oʻz ichiga olganligi sababli, bu norma faqat yuqoridan jazo koʻrsatish bilan cheklanib, yerdagi jazo turini nazarda tutmagan.

Antik davrda ham korrupsiyaning u yoki bu holatlari namoyon boʻlgan. Rim-antik davrda “korrupsiya” atamasi uning ijtimoiy maʼnosi bilan bogʻliq holda qoʻllanila boshlandi.

Korrupsiya hokimiyatni asta-sekin yemiruvchi ichki tahdiddir. Temirning kushandasi zang boʻlganidek, hokimiyatning ashaddiy dushmani korrupsiyadir. Qadimda Rim, yaqin oʻtmishda SSSR kabi imperiyalarning parchalanishiga ham asosiy sabab, shakshubhasiz, korrupsiya boʻlgan<sup>17</sup>.

Taʼkidlaganimizdek, korrupsiyaning halokatli taʼsiri Rim

imperiya qulashi sabablaridan biri edi. Oʻzining ommaviy chiqishlarida M.T. Sieron amaldorlar orasida poraxoʻrlik muammosini bir necha bor koʻtargan. Shu bilan birga faylasuf buzgʻunchilikning mohiyatini insonning oʻz mohiyatida, unga xos illatlarda koʻrgan.

Rim huquqida “buzish”, “yoʻq qilish”, “zarar yetkazish”, “soxtalashtirish”, “pora berish” soʻzlari bilan sinonim boʻlgan va ayni paytda har qanday lavozimga oid noqonuniy harakatni bildiruvchi “corruptum” atamasi mavjud edi. Bu tushuncha lotincha “correi” – “bitta mavzu boʻyicha munosabatlarning bir nechta ishtirokchilari” va “gimpere” – “sindirish”, “zarar qilish”, “buzish”, “bekor qilish” soʻzlarining birikmasidan kelib chiqqan. Natijada, bir necha (kamida ikki) shaxsning faoliyatida ishtirok etishni nazarda tutuvchi mustaqil atama shakllandi, ularning maqsadi sud jarayonining normal borishini yoki jamiyat ishlarini boshqarish ishlarini “buzish”, “zarar yetkazish” hisoblangan.

Yevropa falsafasi tarixida korrupsiyaning birinchi izohini aynan Platon bergan. U ochkoʻzlikni eng muhim ijtimoiy illatlardan biri, bu nafaqat hukmdorlar, balki jangchilar uchun ham mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas, deb hisoblagan. Bu illat mulk hisoblanadi, shuning uchun hokimiyat va kuchga ega boʻlganlar mulkdan mahrum boʻlishi kerak, moddiy boylik ishlab chiqaruvchilar esa kuch va hokimiyatga

<sup>14</sup> Ванцев В.А. Проблема легального определения понятия коррупции // Коррупция в России. Информационные и аналитические материалы. Вып. 3. – М., 2001. – С.5.

<sup>15</sup> Коррупция и демократия: извращенные отношения. // Международная политика, 1998, № 4.

<sup>16</sup> Законы Ману. М., 1961. С. 127.

<sup>17</sup> Федор Раззаков. Коррупция в политбюро. – М., 2009.



ega bo'lmasa, davlat gullab-yashnaydi. Aks holda, u zavolga yuz tutadi<sup>18</sup>.

Miloddan avvalgi 300-yillarda Arastu "har qanday siyosiy tizimdagi eng muhim narsa qonunlar va boshqa qoidalar orqali amaldorlarning pul ishlashlari imkoniyati bo'lmasligi kerak" degan haqiqatga e'tibor qaratgan<sup>19</sup>. U korrupsiyaga birinchi bo'lib tizimli darajada e'tibor qaratgan. Davlatchilikka bag'ishlangan "Siyosat" asarida korrupsiya shunchaki huquqbuzarlik faktlari yig'indisi sifatida emas, balki davlatga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan, o'ta og'ir vaziyatda esa, o'limga bo'lmasa ham, uning degeneratsiyasi (buzilishi)ga olib kelishi mumkin bo'lgan hodisa sifatida ta'riflanadi. Arastuning fikricha, korrupsiya hokimiyatning eng yuqori tuzilmalariga ta'sir qiladigan bunday "buzilgan", "noto'g'ri" davlatga tiraniya misol bo'ladi<sup>20</sup>.

Ilk feodal franklar davlatining (V-IX asrlar) huquqiy akti bo'lgan "Salik haqiqati"da ham sudya o'z mansab mavqeini suiiste'mol qilmaslik, odil sudlovni amalga oshirishda faqat qonunga amal qilish talabi mavjud bo'lgan. "Agar Raxinburglar qonun bo'yicha hukm qilmasalar, ularga qarshi da'vo qo'yilsin va agar ular qonun bo'yicha hukm qilmaganligini isbotlay olsalar, ularning har biri 600 denariy to'lashga majbur qilinadi, bu 15 solidga tengdir"<sup>21</sup>.

Shuningdek, izlanishimiz o'z davrining buyuk sarkardasi bo'lgan Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida

mazmunan korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq ayrim atamalarni, xususan "zolimlar", "mazlumlar", "moddiy, jismoniy zarar", "jabr-zulm", "aybdor" va "gunohkor" kabi tushunchalarni ko'rish mumkin. Xususan, "Temur tuzuklari"dan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga oid quyidagi qoidalarni misol tariqasida keltirish joiz:

– "zolimdan mazlumning haqqini oldim. Zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, uni shariatga muvofiq ikkisi o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm yetkazmadim"<sup>22</sup>;

– "hokimlaru sipohdan qay birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'rdim"<sup>23</sup>.

Rivojlangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish evolyusiyasining yangi bosqichi XIX–XX asrlar boshi bo'ldi. Bir tomondan, davlat tomonidan tartibga solish choralarning va shunga mos ravishda mansabdor shaxslar vakolatlarining yangi yuksalishi boshlandi. Boshqa tomondan, raqobat kurashida "davlatni sotib olish"ga murojaat qila boshlagan yirik biznes paydo bo'ldi – ular endi ayrim kichik davlat amaldorlarini sotib olishga emas, balki siyosatchilar faoliyatini bevosita bo'ysundirishga va yuqori mansabdor shaxslar kapital manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qarata boshladilar.

<sup>18</sup> Платон. Государство. Т. III. М., 1983. С. 417.

<sup>19</sup> Дашков Г.В. Международно-правовой аспект в борьбе с коррупцией в РФ // Научные труды ИМПЭ им. А.С. Грибоедова. М., 2006. С. 61.

<sup>20</sup> Аристотель. Собрание сочинений: В 4 т. М., 1983. Т. 4. С. 150.

<sup>21</sup> Салическая правда / Под ред. В.Ф. Семенова. М., 1950. С. 55.

<sup>22</sup> Temur tuzuklari / Tahrir hay'ati: B. Abduhalimov va boshq. – T., 2012. – 76-b.

<sup>23</sup> O'sha manba. – 78-b.



Tarixga nazar tashlasak, Pyotr bir o'zlarining rasmiy faoliyatida xolis bo'lmagan mansabdor shaxslar – fiskal xodimlarning faoliyati ustidan nazoratni ta'minlash uchun huquqni muhofaza qilish organlarini yaratdi. Shunday qilib, Yaroslavl provins-fiskali Popsov o'z lavozimida bo'lganida, quyi darajadagi fiskallardan va boshqa shaxslardan pora olgan. Ushbu jinoyatlarni sodir etgani uchun u o'limga hukm qilindi va qatl etildi<sup>24</sup>.

Yekaterina II davrida poraxo'rlik uchun jazo choralari Pyotr I davridagidek qattiq emas edi. Mansab vakolatini g'arazli suiiste'mol qilganlik uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga emas, balki jinoyat sodir etganlik uchun jazo muqarrarligi prinsipini ta'minlashga ko'proq e'tibor qaratildi.

1917-yil sentyabr oyida Muvaqqat hukumat tomonidan huquqni muhofaza qilish tizimini isloh qilish jarayonida tasdiqlangan "Moskva shahar milisiyasi milisionerlari uchun yo'riqnoma"da imperativ ko'rsatmalar tarzida emas, balki axloqiy baho shaklida shunday so'zlar keltirilgan:

– milisioner fuqarolar uchun hushyorlik, halollik, rostgo'ylik, fidoyilik, mardlik va jasorat namunasi bo'lishi kerak" (2-band);

– milisiya xodimining rasmiy mavqei boshqa fuqarolarga nisbatan unga hech qanday ustunlik bermaydi, masalan: navbatsiz oziq-ovqat olish, tomoshalarda bepul qatnashish va hokazo (9-band)<sup>25</sup>.

1917-yil oktyabr oyida bolsheviklar tomonidan amalga

oshirilgan Rossiya davlatining siyosiy tizimi va boshqaruv shaklidagi o'zgarishlar korrupsiya, poraxo'rlik va mansabni suiiste'mol qilishning boshqa shakllari va ularning mazmunini o'zgartirmadi. Hokimiyatga erishgan mehnatkash xalq vakillari korrupsiyani davom ettirdilar.

Xalq Komissarlari Kengashining 1918-yil 8-maydagi "Poraxo'rlik to'g'risida"gi Farmoni Sovet Rossiyasida korrupsiya uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi birinchi akt bo'ldi (kamida besh yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish, u shu muddatga majburiy mehnat bilan birlashtirildi). Qizig'i shundaki, mazkur Farmonda pora olishga yoki berishga intilish sodir etilgan jinoyatga tenglashtirildi.

Rossiya Federatsiyasi hududida ishlab chiqilishi 1918-yilda boshlangan Jinoyat kodeksi 1922-yil 1-iyundan kuchga kirdi. Yangi Jinoyat kodeksi kommunistik tuzum yoki o'tish davri kodeksi bo'lishi kerak edi. Unda, keyingi 1926 va 1960-yilgi Jinoyat kodekslaridagi kabi jazo choralariga alohida e'tibor qaratilgan. Tashkiliy vositalar va intizomiy jazo choralari orqali mansab vakolatini suiiste'mol qilishning oldini olish imkoniyatlarini yetarlicha baholamaslik jiddiy jazo sifatida (ayrim qilmishlar uchun, jumladan, o'lim jazosigacha) ham ko'rilishi mumkin edi.

Mashhur olim A.Kirpichnikov korrupsiya hodisasining rivojlanishini o'rganar ekan, o'zining "Rossiyadagi pora va korrupsiya" kitobida Stalindan keyingi davrda korrupsiyaning keng tarqalishini yashirish tobora qiyinlashdi. Ijtimoiy

<sup>24</sup> Кабанов П.А. Коррупция и взяточничество в России. Нижнекамск. – 1995. – С.21.

<sup>25</sup> Из опыта работы милиции. М., ГИЦ МВД СССР, 1991. Спец. выпуск № 1. С.5,6.



munosabatlarning ma'lum darajada muzlashi korrupsiyaning keng tarqalganligini va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning korrupsiya domiga tushib qolganligini ko'rsatdi.

Rasmiy ravishda huquqni muhofaza qilish organlari deb ataladigan jazo idoralari korrupsiyaga qarshi kurashmasa bu yerda yashirin iqtisodiyot mavjud bo'lishi mumkin va u doimo mamlakat iqtisodiy salohiyatining muhim qismini tashkil qiladi. Bu, birinchi navbatda, ichki ishlar organlariga va uning bo'linmalariga (Ittifoq davrida socialistik mulkni o'g'irlashga qarshi kurash boshqarmasi va bo'limlari (OBXSS – *Muallif*) iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish uchun mo'ljallangan.

Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi rahbari N.Xrushchev korrupsiyani birgina hal qiluvchi zarba bilan tugatishga qaror qildi. 1962-yil iyul oyida pora olish uchun o'lim jazosi joriy etildi. O'lim jazosi korrupsiyaning fosh etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi: odamlar jinoyatchini fosh qilib, qotillik gunohini o'z zimmalariga olishni istamas, tabiiyki, korrupsiyanerlarning o'zlari ham o'z jinoyati haqida gapirishdan qo'rqishardi.

SSSR Oliy Kengashining 1991-yil 24-iyuldagi "SSSR va respublikalar jinoyat qonunchiligi asoslarini amalga oshirish to'g'risida"gi Farmoni bilan 1991-yil 24-iyuldan boshlab SSSR hududida pora olganlik uchun o'lim jazosi bekor qilindi<sup>26</sup>. Inqilobdan oldingi Rossiya jinoiy qonunchiligi va Sovet korrupsiyaga qarshi qonunchiligi

tajribasi ijobiy ko'rinadi va zamonaviy sharoitda qabul qilinishi mumkin.

XX asrning 90-yillarida MDH mamlakatlari boshdan kechirgan o'tish davrida partiyaviy nazorat tizimining yemirilishi zarur huquqiy baza va huquqiy madaniyat bilan qo'llab-quvvatlanmagan yangi iqtisodiy tizimga tez o'tish sodir bo'ldi, bu esa korrupsiyaning gullab-yashnashi uchun qulay sharoit yaratdi. Hamma narsaga ruxsat berilganlik, hamma narsani sotib olish mumkin bo'lgan "yovvoyi" bozor hodisasi davlat lavozimlari va ularga xos bo'lgan vakolatlarining ham oldi-sotdi predmetiga aylanishiga olib keldi<sup>27</sup>. Korrupsiya davlat amaldorlari bilan o'zaro munosabatlarning samarali usullaridan biri bo'lib chiqdi.

Ko'rib chiqilayotgan hodisaning rivojlanish tarixidan kelib chiqib, hozirgi bosqichda korrupsiya nimani anglatishini, qanday xususiyatlarga ega ekanligini ko'rib chiqaylik.

Ilmiy-nazariy jihatdan korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi nafaqat huquqiy fanlarning, ayni chog'da boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, falsafa, sosiologiya, pedagogika, psixologiya kabi fanlar doirasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada V.N. Lopatinning "Korrupsiyaga qarshi kurashish – nafaqat jinoyat huquqining muammosi, balki umum yuridik, ijtimoiy va siyosiy muammo hisoblanadi"<sup>28</sup> degan

<sup>26</sup> Ведомости Съезда народных депутатов СССР и Верховного Совета СССР. – 1991. – № 27. – С. 1362.

<sup>27</sup> Кабанов П.А. Политическая коррупция в России: Криминологическая характеристика и меры сдерживания. Нижнекамск, 1998. – С. 27.

<sup>28</sup> Лопатин В.Н. О системном подходе в антикоррупционной политике / В.Н. Лопатин // Государство и право. – 2001. – № 7. – С. 23.



fikrini bildirgan bo'lsa biz korrupsiyaga qarshi kurashish masalasini bitta fan doirasida chuqur o'rganib bo'lmashligini va ayniqsa bugungi kunda korrupsiyani vujudga keltiruvchi omillar fanlar integratsiyasi atroflicha samarali tadqiq etish mumkin emasligini ta'kidlaymiz.

Korrupsiya uyushgan jinoyatchilikning eng muhim elementlaridan biri sifatida 1979-yil 17-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 34-sessiyasida shakllantirilgan. Korrupsiya hodisasi mansabdor shaxs tomonidan har qanday shaklda haq to'lash uchun mansabdor shaxslarning lavozim tavsiflarini buzgan holda va ularni buzmasdan har qanday harakat yoki harakatsizlikni amalga oshirishi sifatida tavsiflangan.

Korrupsiyaning xalqaro ta'rifidan ko'rinib turibdiki, unda bir vaqtning o'zida ikkita sub'ekt: pora oluvchi va pora beruvchi shaxs ishtirok etadi. Ushbu sub'ektlardan birining yo'qligi korrupsiya mavjudligini istisno qiladi.

Aslida, korrupsiyaning bu ta'rifi poraxo'rlik bilan belgilanadi.

Yevropa Kengashi tadqiqot guruhining ishchi ta'rifiga ko'ra, "korrupsiya – bu poraxo'rlik va davlat yoki xususiy sektorda muayyan vazifalarni bajarish yuklangan shaxslarning har qanday boshqa xatti-harakati bo'lib, bu davlat mansabdor shaxsi, xususiy xodim, mustaqil agent yoki boshqa turdagi munosabatlar maqomi bilan yuklangan majburiyatlarni buzishni o'z ichiga oladi va har qanday

noqonuniy foyda olish uchun mo'ljallangan bo'ladi<sup>29</sup>.

Ushbu ta'rifda korrupsiya sub'ektlari doirasiga o'z maqomidan foydalanish orqali foyda olishga qaratilgan shaxs kiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1978-yil 17-dekabrda qabul qilingan "Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining odob-axloq kodeksi"ga muvofiq, korrupsiya tushunchasi milliy qonunchilik bilan belgilanishi va o'z vazifalarini bajarishda yoki sabablarga ko'ra har qanday xatti-harakatning sodir etilishi yoki harakatsizligini qamrab olishi kerak. "Korrupsiya harakati" iborasi pora berishga urinishni ham o'z ichiga oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash bo'yicha ma'lumotnoma hujjatida korrupsiya "shaxsiy manfaatlar uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish" deb ta'riflanadi. Suiiste'mollarga quyidagilar kiradi: poraxo'rlik, qarindosh-urug'chilik (qarindoshlari yoki "ichki shaxslar" homiyligida daromadli yoki foydali lavozimlarni egallash), davlat mablag'larini shaxsiy foydalanish uchun o'zlashtirish<sup>30</sup>.

Korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda BMT Kotibiyatining korrupsiyaga qarshi qo'llanmasida ham xuddi shunday talqin qilingan. Ushbu hujjatga muvofiq korrupsiyaga quyidagilar kiradi:

a) mansabdor shaxslar tomonidan davlat mulkini o'g'irlash va o'zlashtirish;

<sup>29</sup> Криминология. / Под ред. В.Н. Бурлакова, В.П. Сальникова. СПб., 1998. – С. 317; Права человека. Сборник международных договоров. Нью-Йорк, 1989. – С. 260.

<sup>30</sup> Кабанов П.А. Борьба со взяточничеством и иными формами коррупции в условиях реформирования государственного аппарата и перехода к рынку: Автореф. дисс. ... канд. юр. наук. Н. Новгород, 1994. С. 14-15.



b) mansabdorlik mavqeini suiiste'mol qilish, mansab maqomidan norasmiy foydalanish natijasida asossiz shaxsiy manfaat (imtiyozlar, ustunliklar) olish;

v) jamoat burchi va shaxsiy manfaatlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi.

Xuddi shunday talqin "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi (MDH) namunaviy qonunida ham berilgan: "Korrupsiya (korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar) deganda davlat mansabdor shaxslari, shuningdek, unga tenglashtirilgan shaxslar tomonidan shaxsan yoki vositachilar orqali mulkiy manfaatlar va imtiyozlarni qabul qilish tushuniladi"<sup>31</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida ilk marotaba quyidagi tushunchaga ta'rif berildi: "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – bu korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish"<sup>32</sup> mazmunidagi oydin talqin etilganligini qayd etish mumkin. "Korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan", jumla orqali mazkur alomatlarni O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining tegishli moddalarida quyidagi belgilarga ega bo'lgan 16 ta turdagi:

a) mansab vakolatini suiiste'mol qilib, o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilish (JK 167-modda);

b) xizmat mavqeidan foydalanib, firibgarlik qilish (JK 168-modda);

v) g'arazgo'ylik maqsadida sodir etilgan hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, hokimiyat harakatsizligi, mansab soxtakorligi (JK 192–11, 205, 206, 208, 209-moddalari);

g) pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (JK 192–9, 192–10, 210, 211, 212, 213, 214, 301, 243-moddalar) kabi jinoyatlar mavjud deb hisoblash mumkin.

Xalqaro xarakterdagi rasmiy hujjatlar korrupsiya tushunchasini uning ayrim turlari bilan bog'laydi va shu bilan ushbu jinoyatni boshqa jinoyatlar bilan aniqlaydi, masalan: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining ellik birinchi sessiyasida (1996) qabul qilingan Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro xulq-atvor kodeksida korrupsiya tushunchasi mavjud emas. Biroq, unda mansabdor shaxslarga nisbatan qo'yilgan cheklovlarni inobatga olgan holda, xulosa qilishimiz mumkinki, uni ishlab chiquvchilar korrupsiyani har qanday shaxslar yoki shaxslar guruhiga qonunga xilof ravishda imtiyozlar berish deb hisoblaydilar; mansabdor shaxslar tomonidan o'z mansab mavqeidan shaxsiy nafaqa yoki oilasi uchun shaxsiy yoki moddiy manfaat olish maqsadida noqonuniy foydalanish; o'z xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq

<sup>31</sup> Принят на 13-м Пленарном заседании Межпарламентской ассамблеи государств-участников СНГ (Постановление от 3 апреля 1999 г. № 13-4) // Информационный бюллетень. Межпарламентская ассамблея государств-участников СНГ. – 1999. – № 21. – С. 70-80.

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 1-son, 2-modda.



bo'lmagan faoliyatni amalga oshirish maqsadida olingan davlat mablag'lari, mol-mulk, xizmatlar yoki ma'lumotlar.

1996-yil 29-martda imzolangan Korrupsiyaga qarshi Amerikalarda konvensiya mazmuni jihatidan juda o'xshash ta'rifni o'z ichiga oladi: korrupsiya harakatlari:

a) davlat mansabdor shaxsi yoki davlat xizmatidagi shaxs tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita o'zi yoki uchinchi shaxs yoki yuridik shaxs uchun sovg'a, ne'mat, va'da yoki imtiyozlar yo'li bilan pul qiymatidagi narsalarni yoki boshqa manfaatlarni so'rashi yoki qabul qilishi yoxud mansabdor shaxsning xizmat vazifalarini bajarishdagi harakati yoki harakatsizligi;<sup>3334</sup>

b) davlat mansabdor shaxsiga yoki davlat xizmatida bo'lgan shaxsga mansabdor shaxs tomonidan xizmat vazifalarini bajarishda har qanday harakat yoki harakatsizlik evaziga uchinchi shaxs yoki yuridik shaxsga sovg'a, ne'mat, va'da yoki afzallik berish yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pul qiymatiga ega bo'lgan narsalarni yoki boshqa manfaatlarni taklif qilish yoki berish;

v) davlat mansabdor shaxsi yoki davlat xizmatida bo'lgan shaxs tomonidan o'ziga yoki uchinchi shaxslarga qonunga xilof ravishda nafaqa olish maqsadida mansab vakolatlarini amalga oshirishdagi har qanday harakat yoki harakatsizlik;

g) yuqorida ko'rsatilgan har qanday faoliyat natijasida olingan mulkdan noqonuniy foydalanish yoki yashirish;

d) jinoyat sodir etishda yoki sodir etishga urinishda yoxud yuqorida ko'rsatilgan boshqa qilmishda haqiqatda yoki boshqacha tarzda rahbar yoki uning yordamchisi, sherigi yoki qatnashuvchisi sifatida ishtirok etish.

Korrupsiyaga davlat mansabdor shaxsi yoki davlat vazifalarini bajaruvchi shaxs tomonidan sovg'a tarzida har qanday pul qiymatidagi narsalarni yoki boshqa manfaatlarni so'rash yoki olish bilan bir qatorda o'zi yoki boshqa shaxs yoki yuridik shaxs uchun xizmatlar, va'dalar yoki imtiyozlar ham kiradi.

Korrupsiyaning yuqoridagi ta'riflaridan ko'rinib turibdiki, bu hodisaning belgilariga quyidagilar kiradi: korrupsiya xatti-harakatlarini sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini aniqlash; ushbu xatti-harakatlar qaysi sohada sodir etilishini aniqlash; bunday faoliyatning maqsadlarini aniqlash – boyish, moddiy xususiyatdagi har qanday imtiyozlarni olish; shuningdek, ushbu xatti-harakatlarni sodir etishdan manfaatdor bo'lgan shaxslar doirasini aniqlash – xodimning (mansabdor shaxsning) o'zi va unga noqonuniy ravishda haq to'layotgan uchinchi shaxslar.

INDEM jamg'armasi mutaxassislari ham xuddi shunday yondashuvga qo'shiladilar: Korrupsiya (so'zning tor ma'nosida) deganda mansabdor shaxsning qonunga xilof qaror qabul qilishi (ba'zida jamoatchilik fikri uchun ma'naviy jihatdan qabul qilinmaydigan qaror), bundan boshqa bir tomon manfaat ko'rishi (masalan, ushbu qaror

<sup>33</sup> Международный кодекс поведения государственных должностных лиц: ООН. Генеральная Ассамблея. Резолюция 51/59 «Борьба с

коррупцией» по докладу Третьего комитета // Док. ООН А/RES/51/59, January 28, 1997. С. 3-4.

<sup>34</sup> Криминология / Под общ. ред. Эминова В.Е. М., 1997. С. 61.



tufayli belgilangan tartibga zid ravishda davlat buyurtmasini ta'minlovchi firma), mansabdor shaxsning o'zi esa bu tomondan noqonuniy haq olishi tushuniladi. Bu holatning xarakterli xususiyatlari: qonun yoki yozilmagan ijtimoiy normalarni buzadigan qaror qabul qilinadi, har ikki tomon o'zaro rozilik bilan harakat qiladi; har ikki tomon noqonuniy imtiyoz va afzalliklarga ega bo'ladi, ikkalasi ham o'z harakatlarini yashirishga harakat qiladi.

BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiyasida korrupsiya quyidagicha ta'riflanadi: "Mansabdor shaxsga o'z xizmat vazifalarini bajarishda biron-bir harakat yoki harakatsizlikni amalga oshirish uchun mansabdor shaxsga yoki boshqa shaxs yoki yuridik shaxsga har qanday nomaqbul imtiyoz va'da qilish, taklif qilish yoki unga shaxsan yoki vositachi orqali berish. Jamoatchilik shaxsining shaxsan yoki vositachi orqali o'z xizmat vazifalarini bajarishda har qanday harakat yoki harakatsizlikni amalga oshirishi uchun shaxsning o'zi uchun biron-bir nomaqbul manfaat so'rashi yoki qabul qilishi".

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida korrupsiya o'ta xavfli hodisa sifatida keltiriladi. Va bu tasodif emas. Boshqa mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham amaldorlar orasida uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan pora va poraxo'rlik an'analari keng tarqalgan edi. Biroq, bugungi kunda korrupsiyaning tarqalishi bilan bog'liq vaziyat sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi. Korrupsiya jamiyatning barcha jabhalariga kirib bordi va davlat institutlarining faoliyatiga haqiqatan ham halokatli ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz ichki ishlar organlarida korrupsiya nima ekanligini shakllantirishga harakat qilamiz. Ichki ishlar organlaridagi korrupsiya ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan vakolati va xizmat mavqeidan shaxs, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga zid bo'lgan maqsadlarda foydalanishi natijasida yuzaga keladigan salbiy ijtimoiy hodisa sifatida ta'riflanishi mumkin.

Ta'rifga asoslanib, biz korrupsiyaning ushbu turining belgilarini aniqlashimiz mumkin.

Ichki ishlar organi xodimi tomonidan sodir etilgan qilmish quyidagi hollarda korrupsiya deb topiladi:

- 1) xizmat manfaatlariga daxl qiluvchi noqonuniy xususiyatga ega bo'lsa;
- 2) xizmat mavqeidan noqonuniy faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanadi;
- 3) shaxsiy yoki korporativ g'arazli manfaatlarni ko'zda tutadi;
- 4) xodim o'zining moddiy yoki nomoddiy manfaatini jinoiy yo'l bilan oladi;
- 5) xizmat vakolati va maqomi buziladi.

Yuqoridagilarning barchasi mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishda namoyon bo'ladi. Ichki ishlar organi xodimining mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish deganda, mansabdor shaxsning o'zi egallab turgan mansab lavozimi vakolatlariga kiruvchi huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog'liq, biroq o'z mazmuniga ko'ra egallab turgan lavozimining maqsad va vazifalariga, shuningdek, u faoliyat yuritayotgan tegishli organ faoliyatining



maqsad va vazifalariga zid keluvchi  
harakatlari tushuniladi.